



Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar-iyul oylarida, Jizzax viloyatida jami 5 539,3 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2025- yilning mos davriga nisbatan 121,1 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajmi, mlrd so'm*	O'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	5 539,3	121,1
Jizzax shahri	1807,6	113,5
Arnasoy	72,4	154,8
Baxmal	158,2	143,6
G'allaorol	266,9	159,4
Sharof Rashidov	642,6	113,6
Do'stlik	159,6	141,4
Zomin	580,7	141,0
Zarbdor	110,5	112,0
Mirzacho'l	64,3	151,8
Zafarobod	83,6	127,4
Paxtakor	223,0	137,2
Forish	245,5	143,5
Yangiobod	23,3	116,7

*J) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

I. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-iyul oylarida Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurilishi hajmi 4 220,0 mlrd so'mni (ulushi 76,2 %), o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 120,7 %;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 1 064,4 mlrd so'mni (ulushi 19,2 %), o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 138,2 %

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 254,8 mlrd so'mni (ulushi 4,6 %), o'sish sur'ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 83,1 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 795,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Kuzatilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 42,4 foizga o'sib, ularning umumiy hajmdagi ulushi 14,4 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlarining ulushi 62,2 % ga to'g'ri kelib, bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 446,0 mlrd so'mni tashkil qildi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 19,2 % ga o'sdi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 23,4 % ni yoki 1 298,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 15,6 % ga o'sdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari





Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Jizzax viloyati	795,1	3446,0	1298,1	142,7	119,2	115,6
Jizzax shahri	122,3	1555,4	129,9	62,5	119,4	137,6
Arnasoy	9,2	51,1	12,1	144,0	189,5	90,1
Baxmal	9,1	59,3	89,9	80,3	165,6	142,4
G'allaorol	147,6	49,6	69,7	1554,1	53,6	106,6
Sharof Rashidov	63,3	515,8	63,4	261,0	108,7	94,4
Do'stlik	5,6	92,1	61,9	50,3	171,2	129,2
Zomin	205,9	293,4	81,4	195,2	122,4	122,3
Zarbdor	6,6	58,4	45,5	320,7	107,7	107,5
Mirzacho'l	15,5	22,7	26,1	362,4	110,8	148,2
Zafarobod	35,8	20,6	27,2	148,6	91,1	143,9
Paxtakor	31,8	146,0	45,2	180,5	131,7	132,7
Forish	13,1	203,4	29,0	131,0	153,5	101,4
Yangiobod	2,8	12,2	8,4	112,7	118,8	115,2

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.*

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari G'allaorol tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 15,5 m), Mirzacho'l tumani (3,6 m) va Zarbdor tumanlarida (3,2 m) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Arnasoy tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 1,8 m), Do'stlik (1,7 m) va Baxmal (1,6 m) tumanlarida kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.



Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul: Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi	Ijrochi: K. Butunbayeva 72 221-51-02	Manzil: Kimyogar maxallasi to'qimachilar ko'chasi
--	---	--